



Islamic museum and civilization centers organization

Dilnoza SAIPOVA¹

National Institute of Art and Design Named after Kamoliddin Bekhzod

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2021
Received in revised form
28 March 2022
Accepted 20 April 2022
Available online
15 May 2022

Keywords:

musion,
exterior,
interior,
design,
composition.

ABSTRACT

Along with world museums, this article discusses in detail how to maintain modern and national harmony in the design of museums in Uzbekistan, to increase the effectiveness and attractiveness of museums to people of all ages, to connect museums with interior and exterior design.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp13-19>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Islom museylari va sivilizatsiya markazlarini tashkil etish

Kalit so'zlar:

musion,
foye,
eksteryer,
interyer,
dizayn,
kompozitsiya

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dunyo muzeylari bilan bir qatorda O'zbekiston muzeylarini loyihalashda zamonaviy va milliy uyg'unlikni saqlab qolish, insonlarni yoshi, jinsidan qat'i nazar, ularga muzeylarning ta'sirchanligi va jozibadorligini oshirish, muzeylarni interyer va eksteryer dizaynini bog'lash haqida batafsil fikrlar yuritiladi.

Исламский музей и центры цивилизации организация

Ключевые слова:

мусион,
экстерьер,
интерьер,
дизайн,
композиция.


АННОТАЦИЯ

Наряду с музеями мира в данной статье подробно рассматривается, как сохранить современную и национальную гармонию в оформлении музеев Узбекистана, повысить эффективность и привлекательность музеев для людей всех возрастов, соединить музеи с дизайном интерьера и экстерьера.

¹ Teacher of the Department of Design, National Institute of Art and Design Named after Kamoliddin Bekhzod.
E-mail: dilnozasaiпова1984@gmail.com. Tel.: (+998) 90-991-71-19.

KIRISH

Dunyoda Islom muzeylari juda ko'p. Ular bir-biridan qaytarilmas va betakror dizayni bilan ajralib turadi. Shunday muzeylardan biri Qatar poytaxti Doha shahridagi Islom san'ati muzeyi bo'lib, u 2008-yilda san'at muxlislariga o'z eshiklarini ochgan. Ayni damga kelib, muzey mamlakatning eng diqqatga sazovor joylaridan biriga aylanib ulgurgan. Muzey binosi qadim islom me'morlik an'alariga xos ravishda loyihalashtirilgan bo'lib, loyiha muallifi – dunyoning mashhur zamonaviy arxitektorlaridan biri – xitoylik Io Min Peydir. Parijdagi Luvr muzeyining shishali piramida loyihasi ham aynan shu arxitektorga tegishli. Muzey binosi Doha shahrining janubiy qismidagi sun'iy orollardan birida joylashgan. Binoning ichki qismi 3 qavatdan iborat bo'lib, arab me'morchiligiga muvofiq sodda, ixcham qilib ishlangan. Ushbu muzeyga san'at asarlari namunalari 1980-yillardan boshlab yig'ila boshlagan. Ular VIII-XIX asrlarga oid juda katta hajmdagi boy eksponatlardir.



Qatar poytaxti Doha shahridagi Islom san'ati muzeyi.

Muzeyning 45 ming kvadrat metrdan iborat keng va zamonaviy ko'rgazma zallarida dunyoning turli yurtlaridan – Markaziy Osiyo, Misr, Ispaniya, Turkiya, Pokiston, Suriya, Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Iroq va Erondan keltirilgan hamda jamlangan san'at asarlari, eksponatlar o'rin olgan. Bular sirasiga nodir qo'lyozma asarlar, kitoblar, tekstil-to'qimachilik mahsulotlari, liboslar, metallardan yasalgan turli buyumlar, bezaklar, zargarlik buyumlari va ko'rkam kulolchilik buyumlari, idishlar kiradi.



Doha shahridagi Islom san'ati muzeyi interyerlari



Doha shahridagi Islom san'ati muzeyi interyerlari

Dunyodagi aksariyat muzey interyerlari to'q rangda bo'lib, maxsus sun'iy yoritkichlar bilan yoritiladi. Sababi, muzeyda eksponat va ma'lumotlar juda ko'p. Tomoshabinni bir eksponat boshqasidan chalg'itmaslik uchun shunday dizayn yechimlari beriladi. Eksponatlar holatiga qarab ochiq yoki yopiq, oynalar bilan to'silgan holda taqdim etiladi.

Ko'rgazma (lot. *exponatus* – ko'rgazmada namoyish etish) – muzey yoki ko'rgazmada ko'rsatiladigan obyekt. Muzey yoki ko'rgazma tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yoki badiiy konsepsiyaga muvofiq san'at asarlari, hujjatlar, artefaktlar, tabiiy jarayonlar mahsuloti namunalari, texnik mahsulotlar maketlari, tarixiy voqealar illyustratsiyasi va boshqalar ko'rgazmaga qo'yilishi mumkin. Ko'rgazmalar ularni namoyish etuvchi muassasaga tegishli bo'lishi yoki ularning egalari tomonidan vaqtinchalik ko'rgazmalar, shu jumladan, doimiy saqlash joylaridan vaqtincha keltirilib, ko'rgazmalar uchun taqdim etilishi mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham muzeylarni qayta ta‘mirlash va jihozlar bilan yanada boyitish uchun e‘tibor qaratilmoqda. Shu qatorda O‘zbekistonda ham Islom sivilizatsiya markazining binosi qurilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 23-iyundagi PQ–3080-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi Toshkentda Islom Sivilizatsiya Markazini qurishga qaror qabul qiladi. Bunga ko‘ra, Markazni Toshkentning Hazrati Imom majmuasi chap yonida qurilish ishlari boshlab yuborilgan.



Islom sivilizatsiya markazi eksteryeri. Arxitektor: A. Turdiyev.

Loyihaga ko‘ra, markazda akademiya, kutubxona, arxiv va qo‘lyozmalar fondi tashkil etilib, ularni bugungi O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, allomalar tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir mamlakatda va chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblar, tarixiy hujjatlar, arxeologik topilmalar, asori-atiqalar, shu yo‘nalishdagi zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, video va foto hujjatlar bilan boyitish, 300 o‘rinli konferensiya zali barpo etish ko‘zda tutilgan.

Dizayner nafaqat muzeylarning me‘moriy va funktsional xususiyatlarini, balki qurilishning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarini, potensial tomoshabinlarning talablarini – uning talablari va real imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Loyihalash jarayonida yoki mavjud bo‘lgan g‘oyalarni ko‘paytirish, an‘anaviy yechimlardan foydalanish yoki yangi texnologik imkoniyatlarga asoslangan hajmli-makonli loyihalarni izlash kabi masalalardan iborat. Ilm-fan va texnologiyaning doimiy rivojlanishi loyihalarni amalga oshirishning aniq shart-sharoitlarini farqlashni dizaynni har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

“Biz ajdodlarimiz bilan doimo faxrlanib kelganmiz, – deydi Davlatimiz rahbari Sh. Miromonovich. – Shunday ekan, o‘zimiz ham ularga munosib bo‘lishimiz kerak. Tashkil etilayotgan markazda ham buning uchun barcha sharoitlarni yaratish, yetuk olimlarni jalb qilish lozim. Mazkur sohaga oid adabiyotlarni jamlash, chet ellarda bo‘lsa, yurtimizga

olib kelish choralarini ko'rish zarur. Bundan tashqari, mamlakatimizdagi diniy yo'nalishlarda to'qqizta o'rta maxsus va ikkita oliy ta'lim muassasasi ham, markaz ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu yerda saboq beradigan o'qituvchilar bilimi va saviyasiga alohida e'tibor qaratish darkor".


XULOSA

"Bu markaz bizning Islom dini targ'ibotidagi yuzimiz bo'ladi. Shunday ekan, uning tashqi ko'rinishi, bu yerda ishlatiladigan qurilish materiallariga ham e'tibor qaratish lozim. Odatdagi ko'zimiz o'rganib qolgan loyihalardan voz kechib, yangi shakl va dizayn topishimiz kerak", – dedi Prezident.

Ushbu ko'rsatmaga tayanib, Islom sivilizatsiya markazi direktori Shoazim Minavarov boshchiligida olimlar, yetuk mutaxassislar, ijodkor rassom, dizaynerlar ish boshladilar. Shu bilan bir qatorda, Fransiyaning Willmote & Associes Architectes kompaniyasi ham o'z loyiha takliflarini tayyorlay boshladilar.



Fransiyaning Willmote & Associes Architectes kompaniyasi

Inventory Number Инвентарный номер:	Title Название: Мечеть и небоскреб	
981.0284		
		
COLLECTION INFORMATION ИНФОРМАЦИЯ ПО ПРЕДМЕТУ КОЛЛЕКЦИИ		
Description Описание:	☒ Reproduction / Fac Simile Репродукция / Фасимиле	☐ Original Оригинал
Material Материал:	/	
Size Размер:	/	
Conservation Place Место хранения:	/	

Inventory Number Инвентарный номер:	Title Название: Онлайн обучение Корану	
981.0285		
		
COLLECTION INFORMATION ИНФОРМАЦИЯ ПО ПРЕДМЕТУ КОЛЛЕКЦИИ		
Description Описание:	☒ Reproduction / Fac Simile Репродукция / Фасимиле	☐ Original Оригинал
Material Материал:	/	
Size Размер:	/	
Conservation Place Место хранения:	/	

Prezident qaroriga asosan, O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi "Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston" g'oyasini targ'ib qiluvchi, mamlakatning yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o'rganuvchi va keng jamoatchilikka yetkazuvchi markazga aylantiriladi.

Prezidentning 16-iyuldagi Qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi quyidagilarni amalga oshiruvchi ilmiy-ma'rifiy markazga aylantirilmoqda:

"Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston" g'oyasini keng targ'ib qiluvchi; mamlakat tarixining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o'rganuvchi, uni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi;

moddiy-madaniy meros namunalarini, islom dini bilan bog'liq qadimiy va boy an'analarni targ'ib qiluvchi.



Stendlar joylashuvi O'zbekistonlik dizaynerlar: O. Kasimov va D. Saipovalar tomonidan bajarilgan birinchi loyiha taklifi

Loyihada umumiy konsepsiyadan uzoqlashmagan holda ishlar olib borilib, fransuz dizaynerlari loyihasidagi ranglar mutanosibligi saqlangan. Sababi, umumiy rang uyg'unligini saqlab qolish muhim omillardan sanaladi. Loyihaning tarh qismida aylana markazi bo'ylab hamma oynali stendlar joylashtiriladi. Markazda esa uchta maket loyihasi rejalashtirilgan, maketlar O'zbekistondagi uchta renessansni o'zida mujassam etadi.

Muzeyning ushbu interyer qismida barcha eksponat, foto va ma'lumotlarning xronologik joylashuviga katta e'tibor qaratilgan. Mazkur bo'lim bo'yicha tarix fanlari doktori, professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedra mudiri Shodmonova Sanobar Bazarbayevna, tarix fanlari nomzodi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedra dotsenti Shamsiyeva Iroda Mahmudovna, G'afur G'ulom uy-muzeyi katta ilmiy xodimi, muzeyshunos Ilhomjonov Lutfulla Sultanovich kabi yirik olimlar ish olib bormoqdalar. Yuqoridagi suratlar asosida dizaynerlar muzey interyerlarini yanada boyitmoqdalar. Ijodiy izlanishlar qatorida ilmiy izlanishlar ham bir maromda hal etilayotganini ko'rishimiz mumkin. "Uchinchi renessans" bo'limini mazmunan yoritishda dizaynerlar qadimgi manbalarga murojaat qilmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <http://strategy.regulation.gov.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan "Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi", 1994-yil 24-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi", 1998-yil 15-mart.
4. "Muzey ishi asoslari" o'quv qo'llanma D.T. Kuryazova. 2018.
5. Muzey va jamiyat (darslik) J.X. Ismailova, K.S. Nishonova, M.S. Muxamedova. 2015-yil.
6. Muzeysunoslik 2018-yil. Ch.X. Ganiyeva.
7. Latipovich T. A. Styles of Prototyping... Prototyping and about Layout // Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 20. – C. 76–80.
8. Makhmudova M.T. Features of a country house in hot countries // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 2167-2173.
9. Mannapova N.R., Saidyusupova M.F. Art schools at the composition and color solutions // Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1919–1921.
10. Kasimov O.S., Miguel A.A.A. Теория и практика современной науки // теория и практика современной науки Учредители: ООО «Институт управления и социально-экономического развития». – №. 10. – C. 24–31.
11. Саипова Д. Lighting design and modern trends in the organization of museum exhibitions // Общество и инновации. – 2021. – T. 2. – №. 11/S. – C. 7–15.
12. Sultanova M.F. et al. The Effect of architectural design and its dimensions on human psychology // NVEO-natural volatiles & essential oils Journal | NVEO. – 2021. – C. 1601–1610.
13. Kamalova F.K.Q. Arxitektura va interyer maketini yasashda xom-ashyo va materiallarning orni // Scientific progress. – 2021. – T. 1. – № 5.
14. Ахунова Н. Dizayn obyektni loyihalashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish // Общество и инновации. – 2021. – T. 2. – №. 10/S. – C. 463–470.
15. Султанова М. Landshaft loyihasini yaratishda landshaft dizayni va bino uygu'unligi // Общество и инновации. – 2021. – T. 2. – №. 12/S. – C. 49–54.
16. Sultanova M.F. The role of tour bases in the development of tourism in Uzbekistan // International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. – C. 1-5.
17. Kasimov O., Salimov O. Landscape formation in central part of historical cities of Uzbekistan // Problems of Architecture and Construction. – 2018. – T. 1. – №. 1. – C. 17–20.
18. Makhmudova M., Makhmudova M. Islamic style in landscape design on the example of ancient gardens of the temurid period // Society. Integration. Education. Proceedings of the International Scientific Conference. – 2020. – T. 5. – C. 706–718.